

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova**

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishslash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida ..... 6

**A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev**

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining o'rni ..... 9

**A.Y.Toyirov**

Hududiylar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'rni ..... 16

---

FALSAFA**A.A.Qambarov**

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

**G.T.Kabulniyazova**

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi ..... 27

**X.N.Xolmirzaev**

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

**S.S.Evato**

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili.... 37

**I.A.Asatulloev**

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiat deformatsiyasi..... 40

**B.X.Tolipov**

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlari ..... 46

**Sh.Q.Oxunova**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi ..... 50

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Axmadning ontoljik qarashlari..... 54

**L.K.Axatov**

Irfoniylar qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida)..... 59

**J.A.Mamanov**

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari ..... 63

**I.I.Umrzakov**

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

**Sh.A.Ismailov**

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari .... 74

**R.S.Raupova**

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'rni ..... 78

**M.A.Rahmonova**

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni ..... 84

**D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev**

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandası..... 92

**B.B.Dehqonov**

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalalarining o'rni va ahamiyati ..... 96

**A.Z.Sharipov**

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar assosi sifatida..... 102

**L.B.Ikromova**

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

**A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov**

Islam qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati ..... 111



UO'K: 1(091) + 159.9

## ZAMONAVIY O'ZBEK FALSAFASIDA GNOSEOLOGIK MUAMMOLARNING YORITILISHI

### ОСВЕЩЕНИЕ ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОФИИ

### ELUCIDATION OF EPISTEMOLOGICAL PROBLEMS IN MODERN UZBEK PHILOSOPHY

Ikromova Laylo Baxrom qizi 

Farg'onan davlat universiteti magistranti

#### *Annotatsiya*

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek falsafasi, undagi gnosseologik muammolar, an'anaviy va epistemologik yondashuvlar hamda inson tafakkurining mohiyati, bilish jarayonlari va haqiqat mezonlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan gnosseologik qarashlar atroficha yoritib berilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning yangilanish jarayonida ushbu mavzuning dolzarbliги tahlil qilingan.

#### *Аннотация*

В данной статье подробно рассмотрена современная узбекская философия, ее гносеологические проблемы, традиционные и гносеологические подходы, а также гносеологические взгляды, необходимые для изучения сущности человеческого мышления, познавательных процессов и критерии истин. При этом была проанализирована актуальность данной темы в процессе обновления нашей страны.

#### *Abstract*

In this article, modern Uzbek philosophy, its epistemological problems, traditional and epistemological approaches, as well as the epistemological views necessary for studying the essence of human thinking, cognitive processes and the criteria of truth are detailed. At the same time, the relevance of this topic in the process of renewal of our country was analysed.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy O'zbekiston, o'zbek falsafasi, gnosseologiya, gnosseologik muammolar, an'anaviy va epistemologik yondashuvlar, inson tafakkuri, bilish jarayoni, haqiqat mezioni.

**Ключевые слова:** современный Узбекистан, узбекская философия, гносеология, гносеологические проблемы, традиционный и гносеологический подходы, человеческое мышление, познавательный процесс, критерий истины.

**Key words:** modern Uzbekistan, Uzbek philosophy, epistemology, epistemological problems, traditional and epistemological approaches, human thinking, cognitive process, criterion of truth.

## KIRISH

Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda falsafiy tafakkur yangi bosqichga ko'tarildi. So'ngra mafkuraviy cheklov olib tashlanib, milliy yondashuvlar shakllantirildi. Ilm-fan rivoji uchun barcha sharoitlar yaratilib, uning har bir sohasiga katta investitsiyalar kiritildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida shunday deganlar: "Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q" [1].

Hozirgi kunda mamlakatimizning qadimgi falsafasi hamda madaniyatini yoritib beradigan manbalar etarlicha. Ammo XX – XXI asrga oid falsafiy bilimlar haqida ma'lumot beradigan adabiyotlar sanoqli. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy falsafaning tendensiyalarini o'rganish dolzarb, deb o'ylayman. Mazkur maqolada falsafaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan gnosseologiyaning ahamiyati yoritilib, uning muammolari qisman tahlil qilinadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bilish jarayoni, haqiqat mezonlari va inson tafakkurining chegaralari bugungi falsafiy izlanishlarning markazida turibdi. Ushbu tadqiqotning maqsadi zamonaviy o'zbek falsafasida gnosseologik muammolar qanday yoritilayotganini aniqlash va asosiy metodologik yondashuvlarni tahlil qilishdir. O'zbek falsafasida gnosseologik muammolarni tadqiq qilishda bir nechta asarlar muhim hisoblanadi. Misol uchun, I. Yusupovning 2019-yilda nashr etilgan "Gnosseologiya asoslari" [2] asarida gnosseologik masalalarning tarixiy ildizlari va zamonaviy talqinlari yoritilgan. Suhrob Panjiyevning 2023-yildagi "Haqiqat tushunchasining falsafiy-metodologik tahlili" [3] maqolasida esa

bilish jarayoni va haqiqat mezonlari falsafiy nuqtai nazardan o'rganilgan. Shu bilan birga, G'. Jo'rayev ning "Sharq va G'arb gnoseologiyasi" va U.Karimovning 2022-yilda nashr etilgan "Epistemologik skeptitsizm va uning tanqidi"[4] kabi asarlarida Sharq va G'arb epistemologik yondashuvlari o'tasidagi asosiy farqlar va ularning falsafiy an'analarga ta'siri tahlil qilingan. Ushbu maqolada

N. Shermuhammedovaning "Gnoseologiya – bilish nazariyasi"[5] asari hamda G'. Xolmo'minovning "Axborotlashgan jamiyatda epistemiologiya va ratsionallik muammosi"[6] deb nomlangan maqoladan keng foydalanildi. Shu bilan birga, G. G'afforovaning "Axborot va axborotlashtirish jarayonlarining falsafiy-metodologik muammolari"[7] hamda Alimatova Nargisning "Talqin ilmiy bilish uslubi sifatida"[8] deb nomlangan avtoreferatlari ham tadqiqotimiz uchun asos bo'la oladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarni tahlil qilish uchun quyidagi tadqiqot metodlari qo'llaniladi:

1. Tarixiy-falsafiy metod orqali bilish jarayoni tushunchasi qadimgi Sharq, islam falsafasi va G'arb falsafasidagi talqinlar orqali tahlil qilinadi.

2. Komparativistik metod bilan Sharq va G'arb epistemologiyasi hamda zamonaviy falsafiy yondashuvlar taqqoslanadi.

3. Dialektik metod orqali bilish jarayonidagi qarama-qarshiliklar va gnoseologik skeptitsizm hamda optimizm o'tasidagi bog'liqlik tadqiq qilinadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gnoseologiya bugungi falsafasining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bilish jarayonini ilmiy, texnologik va madaniy vaziyatlarda o'rganishga imkon beradi. Bilish nazariyasingning falsafa rivojlanishidagi o'mi haqida falsafa fanlar doktori H. Abdullayev shunday deydi: "Gnoseologiya shunchaki bilim olish jarayonini o'rganish bilan cheklanmaydi. U inson tafakkurining qaysi yo'nalishda rivojlanishini belgilovchi omil hisoblanadi"[9.45]. Bilish jarayonlarini tahlil qilish qadimdan falsafaning asosiy masalalaridan biri bo'lib kelgan. Epistemologiya inson tafakkuri va bilish imkoniyatlarini o'rganadi, haqiqat mezonlarini belgilashga harakat qiladi[10.27]. Zamonaviy o'zbek falsafasida epistemologik muammolarni tadqiq qilish dolzarb, chunki bu masala nafaqat falsafa sohasida, balki ilm-fan va ta'lif tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng falsafiy tafakkurda ham yangi paradigmalarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Bu esa, epistemologiya bo'yicha yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda[11.48].

Maqolamizning asosiy maqsadi bugungi kundagi epistemologik muammolarni tahlil qilish hamda bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar bilan ishlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

- Gnoseologik muammolarni nazariy jihatdan ko'rib chiqish;
- Bilish jarayoni va haqiqat mezonlari masalalarini zamonav o'zbek falsafasiga tatbiq etish;
- Zamonaviy o'zbek falsafasida haqiqat masalasini o'rganish;
- Gnoseologik muammolarning an'anaviy va zamonaviy talqinlarini qiyosiy tahlil qilish.

Hozirgi kunda olib borilayotgan tadqiqtlarda zamonaviy o'zbek falsafasida epistemologik muammolarning yoritilishi tizimli ravishda o'rganiladi. Bu borada gnoseologik muammolarning an'anaviy va zamonaviy talqinlari qiyosiy tahlil qilinadi, o'zbek mutafakkirlarining bilish jarayoniga oid bo'lgan qarashlari chuqur o'rganiladi hamda epistemologik qarashlar zamonaviy tafakkur doirasida tahlil qilinadi. Endi esa ushbu mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini ko'rib chiqsak, maqsadga muvofiq deb o'yayman. Nazariy jihat shundan iboratki, XXI asr o'zbek falsafasida bilish borasidagi muammolarning o'rganilishi jarayonida yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Amaliy jihat esa ushbu tadqiqotlar natijasi zamonaviy axborot jamiyatida gnoseologik jarayonlarning muhim jihatlarini yoritib beradi. XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergen "Kognitiv inqilob"ni bu holatga misol qilib keltirishimiz mumkin. Kognitivlikka e'tiborning kuchayishiga falsafa, fan tizimidagi o'zgarishlar, komputer inqilobi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi[12.922].

Bizga ma'lumki, o'zbek falsafasida gnoseologik masalalar an'anaviy Sharq falsafiy tafakkuri va zamonaviy epistemologik tendensiyalar bilan uyg'un holda tahlil qilinadi. Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolar, asosan, inson idroki va bilish faoliyatining chegaralari, bilim manbalari va haqiqat mezonlari atrofida muhokama qilinadi. O'zbek olimlari gnoseologiya masalalarini tahlil qilishda tarixiy-falsafiy yondashuvdan foydalanib, qadimgi Sharq mutafakkirlari va

## FALSAFA

zamonaviy epistemologik konsepsiylar o'rtasidagi uzyiy bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiladilar[13,27].

Zamonaviy o'zbek falsafasida haqiqat masalasi turli nuqtai nazarlardan tahlil qilinadi. Masalan, Alisher Qambarov falsafiy izlanishlarida haqiqat mezonini klassik gnoseologiya doirasida ko'rib chiqadi va uni amaliy faoliyat bilan bog'liq holda tushuntiradi. Haqiqatan ham, haqiqat faqatgina fikrlarning ichki mantiqiy mosligi bilan cheklanmaydi, balki bilimning haqiqatga mosligi uning real hayotda qo'llanilishi bilan ham bog'liq. Shuningdek, S. Panjiyev ham "Haqiqat tushunchasining falsafiy-metodologik tahlili" deb nomlangan avtoreferatida postindustrial jamiyatda haqiqatning namoyon bo'lishi, uning pragmatik mohiyati va shakllarini yoritib bergan. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda haqiqat statik emas, balki dinamik jarayon sifatida qaraladi[14.18]. Shubhasiz, zamonaviy o'zbek falsafasida ham haqiqat mutlaq, o'zgarmas narsa emas, balki ilmiy, ijtimoiy va amaliy faoliyat bilan bog'liq holda rivojlanishi nazarda tutiladi. Haqiqatning dinamik tabiatи deganda biz uning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, yangi bilimlar va texnologiyalar ta'sirida shakllanishini tushunamiz. Shu sababli, haqiqatni izlash jarayoni hech qachon tugamaydi.

Sharq va G'arb gnoseologiyasini qiyosiy tahlil qilish zamonaviy o'zbek falsafasida dolzarb mavzulardan biridir. Sharq epistemologiyasi, ayniqsa, tasavvufiy bilish, irfoniy idrok va hikmatga asoslangan bo'lsa, G'arb falsafasida analitik falsafa va ilmiy bilish metodologiyasi ustunlik qiladi. Masalan, Abu Nasr Farobi va Ibn Sino bilish jarayonini "aqli faol" va inson tafakkuri o'rtasidagi bog'liqlik orqali tushuntirgan bo'lsa, G'arb falsafasida Dekart ratsionalistik uslubni ilgari surgan. Zamonaviy o'zbek falsafasida bu yondashuvlar sintetik tarzda qo'llanib, bilishning intuitiv va mantiqiy-metodik jihatlari integratsiya qilinmoqda.

Epistemologik optimizm inson bilish imkoniyatlarga ishonch bildirsa, skeptitsizm esa bilish jarayonining cheklanganligini ko'rsatadi. Zamonaviy o'zbek falsafasida bu ikki yondashuv o'zaro kurash va integratsiya jarayonida tahlil qilinadi. Ba'zi tadqiqotchilar masalan, G'. Jo'rayev epistemologik optimizm pozitsiyasini ilgari surib, inson tafakkurining haqiqatni bilish imkoniyatiga ahamiyat beradi. Boshqa olimlar esa falsafiy skeptitsizm pozitsiyasidan turib, haqiqatning nisbiyligi va inson bilimining chegaralanganligini ta'kidlaydi. Qisqacha qilib aytganda, zamonaviy o'zbek falsafasida epistemologik optimizm ustuvor yo'nalish sifatida ilgari surilmoqda. Skeptitsizm esa tanqidiy tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida muhim bo'lsa-da, asosiy metodologik pozitsiya emas.

## XULOSA

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarini o'rganish bilish jarayonining mohiyati, haqiqat mezonlari va inson tafakkurining chegaralarini tahlil qilish imkonini beradi. Mamlakatimizda bilish muammolarini o'rganish jarayoning o'ziga xosligini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilgan holda ekanligi ko'rsatib beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy yondashuvlar an'anaviy gnoseologik qarashlar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. Ushbu tadqiqot doirasida gnoseologik muammolar tarixiy-falsafiy, analitik, qiyosiy va dialektik metodlar yordamida tahlil qilindi. Bilish jarayoni va haqiqat mezonlari turli falsafiy konsepsiylar asosida tushuntirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy o'zbek falsafasi bilish nazariyalarining an'anaviy va zamonaviy jihatlarini uyg'unlashtirishga intilmoqda. Shu bilan birga, epistemologik optimizm ustuvor falsafiy yondashuv sifatida qaralmoqda. Bu qarash inson bilimi va tafakkuri haqiqatni anglash va tushunishda samarali vosita ekanligini ta'kidlaydi. Ilmiy taraqqiyot, texnologik rivojlanish va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar bilimning doimiy takomillashib borishini tasdiqlaydi. Shuningdek, haqiqat mutlaq va o'zgarmas emas, balki dinamik jarayon sifatida tushuniladi. Yangi ilmiy kashfiyotlar, ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar va falsafiy izlanishlar haqiqat tushunchasini doimiy ravishda kengaytirib boradi. Haqiqatning dinamik tabiati inson tafakkurining cheksizligini, bilish jarayonining esa tugamasligini anglatadi. Kelgusidagi tadqiqotlar bilish jarayoni va haqiqat tushunchasining amaliy falsafadagi o'rnini yanada chuqurroq tahlil qilishga yo'naltirilishi mumkin. Bundan tashqari, gnoseologik yondashuvlarning ilm-fan taraqqiyotiga ta'siri va zamonaviy texnologiyalarga aloqador bo'lgan bilish jarayonlari ham batafsil o'rganilishi lozim.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh. M. Davlat mukofotlarini topshirish marosimidagi nutq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti, 2017-yil 7-dekabr. URL: <https://president.uz/oz/lists/view>
- Yusupov I. Gnoseologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. - 267 b.
- Panjiyev. S. Haqiqat tushunchasining falsafiy-metodologik tahlili. Samarqand: Ilmiy axborotnoma, 2023.

4. Karimov U. Epistemologik skeptitsizm va uning tanqidi. Falsafa va huquq jurnali, 2022, №3.
5. Shermuhammedova. N. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. Toshkent, 2011. – 464 b.
6. Xolmo'minov. G'. Axborotlashgan jamiyatda epistemiologiya va ratsionallik muammosi. International conference. – 927 b.
7. G'afforova. G. Axborot va axborotlashtirish jarayonlarining falsafiy-metodologik muammolari. Toshkent, 2008. – 27 b.
8. Alimatova. N. Talqin ilmiy bilish uslubi sifatida. Toshkent, 2000. – 20 b.
9. Abdullayev H. Falsafa va gnoseologiya muammolari. – Toshkent: Fan, 2020. – 200 b.
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zME, 2000. – 2-jild. – 708 b.
11. Jumaniyozov. D. M. Zamonaviy falsafada haqiqat va bilish muammolari. Philosophy and Humanities Review. – 2021. – T. 5, №4. – B. 120–129.
12. Xolmo'minov. G'. Axborotlashgan jamiyatda epistemiologiya va ratsionallik muammosi. International conference. – 927 b.
13. Yusupov I. Gnoseologiya asoslari. Toshkent: Fan, 2019. - 267 b.
14. Panjiyev. S. Haqiqat tushunchasining falsafiy-metodologik tahlili. Samarqand: Ilmiy axborotnomma, 2023. – 51 b.